O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2024 - yil 22 - iyun 171-5-0-Q/24 Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy va Zarafshon shaharlaridagi shahar yo‘lovchilar transporti tariflarini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 12, 16-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son, 2024-yil 25-martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-139-son qarorlari ijrosini ta’minlash hamda Navoiy va Zarafshon shahri jamoat transportida yo‘lkira haqini to‘lashda transport kartalaridan foydalanuvchi yo‘lovchilar qamrovini oshirish va tabaqalashgan tariflarni joriy etish orqali shahar yo‘lovchi transporti korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-59-sonli qarori bilan jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lovlarni ommalashtirish maqsadida bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tariflar qo‘llanilisgi, yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan foydalanishda, uning turidan qat’iy nazar, kunlik, bir, uch va olti oylik, yillik cheklangan va cheklanmagan tarif rejalarini joriy etilishi, yo‘nalishlarda yo‘lkira

haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflar belgilanishi tartibi joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy va Zarafshon shaharlarida jamoat transporti uchun to‘lovlarda shaffoflikni ta’minlash, yo‘l kira haqini to‘lashda elektron to‘lov turlaridan foydalanishni rag‘batlantirish hamda avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida yo‘lkira haqi to‘lovi naqd pulsiz usulda amalga oshirilgan hollarda, o‘rnatilgan cheklangan tarifga nisbatan 30 foiz miqdorida ustama qo‘llash hamda tarif rejalarining narxlarini qatnovlar soniga bog‘lash tizimi joriy etilsin.

Bunda:

Navoiy va Zarafshon shaharlari hududidagi shahar yo‘lovchilar transporti – avtobuslarda qatnovlarni amalga oshirish uchun cheklangan tariflar miqdori:

a) bir yo‘lovchi uchun yo‘l haqi naqd pul orqali amalga oshirilganda cheklangan tarif miqdori - 2 000 (ikki ming) so‘m;

b) bir yo‘lovchi uchun yo‘l haqi transport kartalari va bank kartalari orqali amalga oshirilganda 1 martalik cheklangan tarif miqdori - 1 600 (bir ming olti yuz) so‘m etib belgilansin.

3. Quyidagilar:

qatnovlar soniga bog‘liq holda jamoat transportida transport kartalari va bank kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tariflar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari va bank kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir shahar yo‘lovchilar transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Navoiy va Zarafshon shahar hokimliklari, viloyat transport boshqarmasi (B.Raximov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari va ekspertlarni jalb qilgan holda:

a) aholi orasida:

yangi tashkil etiladigan jamoat transporti yo‘nalishlarining afzalligi, qulayligi, tezkorligi hamda muntazamligi;

jamoat transportida elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishning hamda

tabaqalashtirilgan tariflarning afzalliklari va qulayliklari keng yoritilishini ta’minlasin;

b) tadbirkorlik subyektlari orasida “bosib o‘tilgan yo‘l” va “sifat” mezonlari bo‘yicha bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda jamoat transporti faoliyatini moliyalashtirishning yangi tizimi jozibadorligi va kafolatlangan biznesga aylanayotganligi yuzasidan brifinglar o‘tkazsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.Kamolov), viloyat transport boshqarmasi (B.Raximov), Navoiy va Zarafshon shahar hokimliklari jamoat transportlarida elektron to‘lov tizimi keng joriy etilishini inobatga olgan holda aholini yetarli miqdorda transport kartalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Viloyat transport boshqarmasi (B.Raximov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib o‘n kun muddatda qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda yo‘lovchilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzilgan shartnomalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining 2019-yil 30-oktyabrdagi “Navoiy va Zarafshon shaharlari hududidagi shahar yo‘lovchi tashish transporti xizmatlarining tariflari to‘g‘risida”gi Q-187-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh.Raubayeva) mazkur qarorni “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarida e’lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari E.Kamolov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **N.Tursunov**

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 22-iyundagi
171-5-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda jamoat transportida transport kartalari va bank kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tariflar miqdori

T/r	Tarif rejalarining nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Qatnovlar soni	Tarif rejalarining narxi (so‘m)
1.	“AV” avtobus, - aholi uchun	1	-	6 000
		5	22	27 000
		10	44	54 000
		15	66	81 000
		20	88	108 000
		30	130	160 000
		90	-	480 000
		180	-	960 000
		365	-	1 948 000
3.	“N” avtobus, - pensionerlar va nogironlar uchun	1	-	3 000
		5	22	13 500
		10	44	27 000
		15	66	40 500
		20	88	54 000
		30	130	80 000
		90	-	240 000
		180	-	480 000
		365	-	974 000
4.	“T” avtobus, - talabalar uchun	1	-	3 000
		5	22	13 500
		10	44	27 000
		15	66	40 500
		20	88	54 000
		30	130	80 000
		90	-	240 000
		180	-	480 000
		365	-	974 000

5.	“O‘” avtobus, - o‘quvchilar uchun	1	-	3 000
		5	22	13 500
		10	44	27 000
		15	66	40 500
		20	88	54 000
		30	130	80 000
		90	-	240 000
		180	-	480 000
		365	-	974 000

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 22-iyundagi
171-5-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari va bank kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir shahar yo‘lovchilar transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar miqdori

T/r	Tarif rejalarining nomlanishi	To‘lov tizimi	Tarif rejalarining narxi (so‘m)
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1600
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1000
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0